

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**RAXIMBERDIYEV MIRZOHIJ RAXIMBERDI O‘G‘LI**

**MODIFIKATSIYALANGAN YIGIRILGAN IP ISHLAB CHIQRISH  
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02- To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va  
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on technical sciences**

<b>Raximberdiyev Mirzohid Raximberdi o‘g‘li</b> Modifikatsiyalangan yigirilgan ip ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish .....	3
<b>Рахимбердиев Мирзохид Рахимберди угли</b> Совершенствование технологии выработки модифицированной пряжи .....	23
<b>Rahimberdiyev Mirzohid Raximberdi ugli</b> The improvement of the technology of modified spun yarn production .....	45
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> <b>Список опубликованных работ</b> <b>List of published works</b> .....	49

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**RAXIMBERDIYEV MIRZOHIJ RAXIMBERDI O‘G‘LI**

**MODIFIKATSIYALANGAN YIGIRILGAN IP ISHLAB CHIQRISH  
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02- To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va  
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4479 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Fayzullayev Shavkat Raimovich**  
texnika fanlari nozodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xanxadjaeva Nilufar Raximovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Erkinov Zokirjon Erkinboy o'g'li**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 4-mart kuni soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail:titlp\_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (221-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 19-fevral kuni tarqatildi.  
(2025-yil 19-fevraldagi 221-raqamli reysr bayonnomasi).



**X.X.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z.Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Sh.Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**issertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yigirilgan ip ishlab chiqarish to'qimachilik sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ip tayyorlashda energiya-resurstejamkor, takomillashgan texnologiya va texnik vositalarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Bugungi kunda dunyoda 116 million tonnadan ko'p tabiiy va kimyoviy tolalar tayyorlanib, ulardan bir milliondan ortiq nomdagi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Xususan yigirilgan ip va yangi assortimentdagi to'qimachilik matolarini olishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Rivojlangan AQSH, Shvetsariya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Xitoy, Hindiston va boshqa shu kabi davlatlarda halqali yigirish usulida yigirilgan ipdan yangi turdagi matolarni ishlab chiqarishda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Bu to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash hamda texnologik jarayonlarni takomillashtirishni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan yigirilgan ip ishlab chiqarish uchun innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda ip ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo'lgan, tayyor mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilaydigan, energiya-tejamkor, zamonaviy, ilg'or, takomillashgan va yangi yigirish mashinalarini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy-taqdiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, halqali yigirish mashinasining ip shakllanish qismida mahsulot sifatini yaxshilashga erishish uchun so'ngi texnologiyalardan foydalanish, ularning takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqishga hamda ishlash parametrlarini asoslash orqali yigirish texnologiyasini takomillashtirib modifikatsiyalangan yigirilgan iplarni tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2023-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston — 2030" strategiyasida, jumladan, "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, to'qimachilik matolarining sifatini oshirish, ularda foydalanilayotgan yigirilgan ip xossalarini yaxshilash, iste'mol xususiyatlari yaxshilangan yangi assortimentdagi iplarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5989-sonli, 2022-yil 21-yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-53-sonli, 2023-yil 10-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2-sonli farmonlari, 2024-yil 1-maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib

chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-71-sonli farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Energetika, energiya resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Mazkur dissertatsiya ishida jahonda ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik tolalari, ulardan halqali yigirish usulida yigirilgan ip ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, yangi texnologiyalar yaratish va turli matolarni olish bo'yicha respublikamiz va dunyo olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqot ishlari tahlil etilgan. Shuningdek, modifikatsiyalash qurilmalarini joriy etish orqali yigirilgan ip olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganilgan. Modifikatsiyalash qurilmalari yordamida yigirilgan ip va ulardan turli assortimentdagi matolar tayyorlash, hamda ularni ishlab chiqarishga tadbir etish bilan xorijda Xiao Ming Tao, Tao Hua, Jie Feng, Rong Yin shug'ullanishgan. Halqali yigirish usulining pishitish uchburchagi bo'yicha Noman Haleym, Sarmad Aslam, Saeed Shaikhzadeh Najar va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Yigirilgan ipning fizik-mexanik xossalarini yanada yaxshilash bo'yicha tadqiqotlar A.G.Sevostyanov, G.N.Kukin, A.N.Solovyov va boshqalar tomonidan o'tkazilgan.

Respublikamizda to'qimachilik matolari uchun halqali yigirish usulida ip ishlab chiqarish va yigirish mashinalarining texnologik parametrlarini asoslash bo'yicha tadqiqotlar Sh.R.Marasulov, X.A.Alimova, Q.G'.G'afurov, Q.J.Jumaniyazov, S.L.Matismailov, A.P.Pirmatov, V.T.Isaqulov, Sh.R.Fayzullayev va boshqalar tomonidan olib borilmoqda.

Mazkur tadqiqotlar natijasida an'anaviy halqali yigirish usulida yigirilgan iplarning sifat ko'rsatkichlari yaxshilanganligi ko'rsatilgan. Lekin ipning tengvaznlik xossasini yaxshilash, kam buramli iplarni yigirish uchun soxta buram beruvchi modifikatsiyalash qurilmasi qo'llash va uning optimal parametrlarini tanlash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasini ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 42/2024 "Halqali yigirish mashinalarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish orqali yangi modifikatsiyalangan yigirilgan ip ishlab chiqarish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** soxta buram beruvchi modifikatsiyalash qurilmasi yordamida halqali usulda ip olish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

halqali ip yigirishda qo'llanilayotgan modifikatsiyalash qurilmalariga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish;

yigirilayotgan ipga soxta buram beruvchi yangi konstruksiyadagi modifikatsiyalash qurilmasini yaratish;

yangi konstruksiyadagi modifikatsiyalash qurilmasining pishitish uchburchagiga va buram taqsimotiga ta'sirini nazariy tahlil etish;

takomillashgan modifikatsiyalash qurilmasi yordamida soxta buram berish parametrlarining matematik modelini yaratish;

modifikatsiyalangan ipning sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida paxta tolasi, halqali yigirish mashinasi, cho'zish asbobi, urchuq, ip o'tgich olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida modifikatsiyalash qurilmasi va parametrlari, unda yigirilgan ip, ularning xossalari olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanikaning fundamental asoslari, tajribalarni rejalashtirishning matematik statistika va to'la omilli usullari, modifikatsiyalash qurilmasi tezligini baholashda maxsus o'lchash, natijalarni baholash, solishtirish usullari, matematik hisoblash usullari hamda maqsadli kompyuter dasturlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ipning sifatini yaxshilash, muvozanatlash va buramini kamaytirishga qaratilgan, soxta buram beruvchi ichki yuzasi giperbola shaklli spiralsimon bo'rtmalarga ega yangi konstruksiyadagi modifikatsiyalash qurilmasi asosida yigirish texnologiyasi takomillashtirilgan;

shakllanayotgan ipdagi tashqi kuchlarning muvozanat tenglamasidan foydalangan holda, modifikatsiyalash qurilmasining soxta burami pishitish uchburchagidagi tolalarning taranglik kuchlariga ta'sirini ifodalovchi bog'lanishlar olingan;

qurilma hosil qilayotgan buramlarning ipda taqsimlanish shartlari Doppler effekti asosida aniqlangan va doimiy tezlikda harakatlanayotgan ipdagi buramlarni hisoblash dasturi yaratilgan;

modifikatsiyalash qurilmasi aylanish chastotasi va uni mashinada joylashish o'ring ratsional parametrlari ko'p omilli regression modellar tahlillari asosida aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yigirilgan ip ishlab chiqarishda yangi konstruksiyadagi ipga soxta buram beruvchi ichki yuzasi giperbola shaklda bo'lgan spiralsimon bo'rtmalardan iborat modifikatsiyalash qurilmasi yaratilgan;

yigirish mashinasida ipga soxta buram berish jarayonida shakllanayotgan ipning tolalar migratsiyasining oshishi hisobiga ipning sifat ko'rsatkichlari yaxshilangan, ipdagi buramlar sonining kamayishi natijasida mashina unumdorligini oshiradigan takomillashtirilgan modifikatsiyalash qurilmasi yaratilgan;

modifikatsiyalash qurilmasi yordamida pishitish uchburchagining optimal shakl parametrlarining doimiyligini ta'minlash qonuniyatlari aniqlangan;

modifikatsiyalash qurilmasi bilan yigirilgan ip xossa ko'rsatkichlari yaxshilanishiga erishilib, kam buramli trikotaj ipi ishlab chiqilgan;

modifikatsiyalash qurilmasi yordamida yigirilgan ipdan to'qilgan trikotaj matosining sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishi va resurs sarfi kamayishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning mosligi, aprobatsiya va qo'llash natijalarining ijobiyliigi, shuningdek, natijalarni solishtirish, baholash mezonlariga ko'ra adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularning ko'rib chiqilgan fan sohasidagi ma'lumotlar bilan qiyosiy tahliliga ko'ra asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, halqali yigirish usulida ip shakllanishida ipdagi tolalarning migratsiyasini modifikatsiyalash qurilmasi yordamida oshishi natijasida kam buramli muvozanatlangan ip olish imkoniyatini yaratadi va yangi assortimentdagi tengvaznli ip bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati modifikatsiyalash qurilmasining yaratilgan yangi konstruksiyasi yordamida pishitish uchburchagiga yetib borayotgan buramning bir xil bo'lishi natijasida ipning uzilishi kamayadi va kam buramli ipdan to'qilgan trikotaj matosi sifati yaxshilanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Modifikatsiyalangan yigirilgan ip ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish natijasida ishlab chiqarish sharoitida o'tkazilgan tajriba natijalari asosida:

halqali yigirish mashinalarining texnologik imkoniyatlarini ipga soxta buram beruvchi qurilma yordamida kengaytirilib modifikatsiyalangan yigirilgan ip ishlab chiqarish texnologiyasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi "Agro Teks Alliance" MCHJ va "Navoiy fayzcom textile" MCHJ korxonalarida ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2024-yil 15-noyabrdagi 03/25-3092-sonli ma'lumotnomasi) joriy qilingan. Natijada yangi konstruksiyadagi modifikatsiyalash qurilmasi orqali yigirilgan ipning uzilishdagi uzayishi 8,9 % va solishtirma uzilish kuchi 7,2 % ga ortadi hamda ipning umumiy notekislik 13,3% ga, tukdorlik 9,8 % ga pasayadi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda va 2 ta maqola xalqaro yuqori impact factorli jurnallarda nashr qilingan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligidan elektron hisoblash mashinalari uchun dasturga 1 ta guvohnoma va 1 ta ixtroga patent olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsad va vazifalari belgilangan, uning ob'yehti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy ochib beradi va olingan natijalarning amaliy ahamiyati tadqiqot natijalarini amalda tatbiq etish, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik sanoatida halqali ip yigirish usulining o‘rni”** deb nomlangan birinchi bobida Republikamiz va jahondagi yigirilgan ip ishlab chiqarish holatini tadqiq etish va mavjud adabiyotlar tanqidiy tahlil qilindi. Shu bilan birga, ip tayyorlashning bugungi va ertangi istiqboli, amaldagi yigirish usullari, ularning o‘ziga xosligi, halqali yigirish mashinasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi modifikatsiyalash qurilmalarining afzallik va kamchiliklari o‘rganilgan. Ularning kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha qilingan tadqiqot ishlari tahlil etilgan. Ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiya ishining **“Yigirilgan ip ishlab chiqarishda modifikatsiyalash qurilmasining nazariy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobiga ko‘ra an’anaviy halqali yigirish usulda kam buramli ip yigirishda pishitish uchburchagidagi tolalar taranglik kuchlarining o‘zgarishini va ipga soxta buram beruvchi modifikatsiyalash qurilmasining pishitish uchburchagiga ta’sirini nazariy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyatga egadir.

An’anaviy halqali yigirish usulida kam buramli iplar yigirilayotganda pishitish uchburchagidagi tolalar taranglik kuchlarining turli xil bo‘lganligi uchun unga kelayotgan belgilangan buramlar sonini ta’minlash ipga soxta buram beruvchi modifikatsiyalash qurilmasi yordamida amalga oshirilgan. Qurilma belgilangan buramni berishi pishitish uchburchagidagi  $\alpha$  va  $\beta$  –burchaklar holati  $\alpha \approx \beta$  ga erishilgan, natijada taranglik kuchlari  $T_1 \approx T_2$  bo‘lgan (1-rasm).



**1-rasm. Muvozanatlashgan pishitish uchburchagi sxemasi**

1-rasmdagi pishitish uchburchagi chizmasidan foydalanib ip shakllanishida pishitish uchburchagiga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlarning muvozanat tenglamasi quyidagicha tuzildi.

$$\sum_{i=1}^n F_{iy} = 0; \quad 2 \cdot T \cdot \sin \alpha - P - 2G = 0 \quad (1)$$

Bu yerda,  $G = m \cdot g = \frac{10^4 \cdot \alpha_T \cdot dl}{K^2} \cdot g$  ga teng bo'ladi.  $P$ –yuk (sN),  $G$ –pishitish uchburchagining yon tomoni og'irlik kuchi (sN),  $\alpha_T$ –pishitish koeffitsiyenti,  $K$ –pishitilganlik (b/m),  $dl$ –pishitish uchburchagining yon tomoni uzunligi (mm),  $g$ –erkin tushish tezlanishi ( $m/s^2$ ),  $dl = v dt$ .

(1) muvozanat tenglamasidan pishitish uchburchagidagi tarangliklar hosil qilingan.  $\alpha = \beta$  holatdagi pishitish uchburchagi uchun taranglik kuchi quyidagicha ifodalangan.

$$T = \frac{10^4 \cdot \alpha_T \cdot dl + P}{\sin \alpha} \quad (2)$$

Bu yerda,  $\alpha$ –pishitish uchburchaging burchagi (1.  $\alpha_1 = 30^\circ$ , 2.  $\alpha_2 = 45^\circ$ , 3.  $\alpha_3 = 60^\circ$  ga teng).


Kam buramli, tengvaznli ip yigirishda buramlar sonining kamayishiga bog'liqlik ravishda ipning sifatini oshirishga qaratilgan nazariy tadqiqotda pishitish uchburchagiga yetib kelayotgan belgilangan buramlar natijasida pishitish uchburchagining o'zgarish shakliga erishishi natijasida yuqoridagi (2) tenglamadan foydalanib pishitish uchburchagidagi tolalar taranglik kuchi pishitish uchburchagi burchagiga bog'liqligi tahlil qilinganda pishitish uchburchagining  $\alpha$  burchagi oshgan sari tolalarning taranglik kuchi kamayib borgan.  $\alpha_3 = 60^\circ$  bo'lganda tolalarda taranglik kuchlari eng kam bo'lishi aniqlangan.

Ipning solishtirma uzilish kuchini shakllanayotgan ip massasiga, buramlar soniga va ipning chiqish tezligiga bog'liqlik tenglamasi aniqlandi. Ipning solishtirma uzilish kuchiga ta'sir qiluvchi parametrlarning ratsional qiymatlari Maple dasturidan foydalanib aniqlangan grafiklar keltirildi.


$$R_u = \frac{P_t \cdot l}{m} = \frac{P_t \cdot l^2 \cdot n_u^2 \cdot \sin^2 \beta}{4 \cdot 10^4 \cdot r^2 \cdot \omega^2 \cdot \alpha_T^2 \cdot \sin^2 \frac{\gamma}{2}} \quad (3)$$

Bu yerda,  $P_t$ –uzilish kuchi (sN),  $l$ –ip uzunligi (l),  $m$ –ipning massasi (gr),  $n_u$ –urchuq aylanish chastotasi ( $min^{-1}$ ),  $\alpha$ –pishitish uchburchagi burchagi (gradus),  $r$ –ip radiusi (mm),  $\omega$ –qurilma aylanish chastotasi ( $min^{-1}$ ),  $\alpha_T$ –pishitish koeffitsiyenti,  $\gamma$ –pishitish uchburchagining cho'qqisiga burchagi (rad).

2-rasmda ipga soxta buram beruvchi qurilmaning aylanish chastotalari turli qiymatlarda o'zgarishida, ipning solishtirma uzilish kuchi ham sezilarli darajada farq qilishi kuzatildi. Modifikatsiyalash qurilmasining aylanish chastotasi  $n_3 = 8000 min^{-1}$  bo'lganda, ipning solishtirma uzilish kuchi maksimal darajaga, ya'ni 16 sN/teksdan katta bo'lishi aniqlandi. Ushbu natijalar ip sifati va pishiqligini oshirishda qurilmaning optimal aylanish chastotasini tanlash muhimligini ko'rsatadi.



**2-rasm. Ipnining solishtirma uzish kuchi qurilma aylanish chastatasi turli xil qiymatlarida bo'lgandagi  $\gamma$  burchakka bog'liqligi**



**3-rasm. Ipnining solishtirma uzish kuchi  $\alpha$  burchagining turli xil qiymatlarida  $\gamma$  burchakka bog'liqligi**

3-rasmdagi pishitish uchburchagining yon tomonlardagi  $\alpha$  burchagi  $60^\circ$  ga teng bo'lganda, tolalar massasi, buram soni va taranglik kuchining bir xil bo'lishi eng yuqori solishtirma uzilish kuchiga erishishga olib kelganligi qayd etildi. Bu shuni anglatadiki, pishitish uchburchagidagi burchak va taranglik kuchlarining o'zaro muvozanati ipning strukturaviy barqarorligini ta'minlaydi va kam buram ipning uzilish kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Halqali yigirish mashinasiga ipga soxta buram beruvchi qurilmalar o'rnatilishi natijasida ip shakllanishi va pishitish uchburchagidagi tolalar tarangligidagi o'zgarishlar kuzatiladi. Shuningdek, bu qurilmalar an'anaviy yigirish jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. Qurilmaning pishitish uchburchagiga ta'siri nazariy jihatdan o'rganilib, uning qaysi aylanish chastotalarida ishlashi ipning sifat ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlab olindi.

Modifikatsiyalash qurilmasining halqali yigirish usuli orqali pishitish uchburchagiga ta'siri o'rganilgandan so'ng, qurilmaning shakllanayotgan ipga buram berish jarayonidagi ahamiyati ham tahlil qilindi. Shu maqsadda, qurilma hosil qilgan buramlarning shakllanayotgan ipda taqsimlanishi va bu orqali ipning pishitilishi jarayoni batafsil o'rganildi.


Buramlarning shakllanayotgan ipda qanday taqsimlanishi va ularning ip pishitilishiga ta'siri qurilmaning samaradorligini oshiradi. Ushbu o'rganish natijalari modifikatsiyalash qurilmasi yordamida ipning pishitilishi va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun zarur texnologik yo'nalishlarni belgilashda muhim rol o'ynaydi.

O'zgarmas muhit uchun Guk qonunidan foydalanilganda ekssimetrik koordinatalarda kuchlanish va deformatsiya tensorining komponentlari o'rtasidagi bog'liqliklar quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

$$\sigma_{z\theta} = E \varepsilon_{z\theta}, \quad \sigma_{r\theta} = E \varepsilon_{r\theta} \quad (4)$$

Bu yerda,  $\sigma_{z\theta}$ ,  $\sigma_{r\theta}$  – normal kuchlanishlar,  $\varepsilon_{z\theta}$ ,  $\varepsilon_{r\theta}$  - koordinatalar  $r\theta z$  da mos keladigan nisbiy deformatsiyalar, bu yerda  $Oz$  o'qi ipning o'qi bo'ylab yo'naltirilgan,

Or o'qi esa unga perpendikulyar va koordinatalarning boshi O nuqtaga o'rnatiladi (0,0). Bunda, E - Yung moduli (4-rasm).



**4-rasm. Ipni pishitish jarayonining sxemasi**

$u_\theta = u(r, z, t)$  – orqali ipning ixtiyoriy kesmasining burchakli siljishi deb belgilanadi, bunda siljish vektorining qolgan komponentlari nolga teng bo'ladi.

Unda deformatsiya tensorining komponentlari quyidagi tenglamalar bilan ifodalandi:

$$\varepsilon_{\theta z} = \frac{\partial u}{\partial z}; \quad \varepsilon_{r\theta} = \frac{du}{dr} - \frac{u}{r} \quad (5)$$


Ushbu tenglamalardan shuni ko'rish mumkinki,  $\varepsilon_{\theta z}$  va  $\varepsilon_{r\theta}$  siljish deformatsiyasi  $u(r, z, t)$  siljish va uning hosilasiga chiziqli bog'liqdir. Qabul qilingan sxemada siljish uchun harakat tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega.

$$\rho \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = \frac{2\sigma_{r\theta}}{r} + \frac{\partial \sigma_{r\theta}}{\partial r} + \frac{\partial \sigma_{z\theta}}{\partial z} \quad (6)$$

Buramlar taqsimlanish tezligi uchun  $\chi = \omega r_0/b$ ,  $\bar{\lambda}_r = \lambda_r r_0$ ,  $\bar{v} = v/b$  o'lchovsiz kattaliklarni kiritib, quyidagi ifodalar olindi.

$$\frac{V_{1n}}{b} = -\frac{\chi(\bar{v}^2 - 1)}{\sqrt{\chi^2 + \bar{\lambda}_n^2(\bar{v}^2 - 1) - \chi\bar{v}}}, \quad \frac{V_{2n}}{b} = \frac{\chi(\bar{v}^2 - 1)}{\sqrt{\chi^2 + \bar{\lambda}_n^2(\bar{v}^2 - 1) + \chi\bar{v}}} \quad (7)$$

5-rasmda  $V_{1n}$  va  $V_{2n}$  tezliklarning (ko'ndalang to'lqin  $b$  tezligiga nisbatan) o'lchovsiz chastota  $\chi = \omega r_0/b$ ga bog'liqlik egri chiziqlari keltirilgan. Quyidagi parametr qiymatlari uchun hisob ishlari amalga oshirildi:  $\sigma_u = 5.55 \cdot 10^4 Pa$ ,  $\bar{v} = 5$




(1.  $n = 3$ , 2.  $n = 4$ , 3.  $n = 5$ , 4.  $n = 6$ , 5.  $n = 8$ , 6.  $n = 10$ )

**5-rasm. Teskari (a) va to‘g‘ri (b) buramlar taqsimlanish tezligining turli xil buralish shakllari keltirilgan chastota  $\chi$  ga bog‘liqligi.**

Doimiy tezlikda harakatlanayotgan ip uchun buramlarning taqsimlanish shartlari o‘rganildi va ip bo‘ylab taqsimlanadigan buramlar uchun Doppler effekti parametrlari aniqlandi. Grafiklar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ip bo‘ylab taqsimlanadigan buramlar uchun Doppler effekti ipning qalinligi bo‘ylab buralishning har bir shakli uchun saqlanib qoladi. Bunda, teskari buram uchun Doppler effekti to‘g‘riga qaraganda kuchliroqdir. Bu ip o‘qidan buramlarni aks ettirish jarayonlari bilan bog‘liqdir. Bu qurilmaning ipga buram berishini nazariy asoslaydi. Bu tavsiyalar asosida “Modifikatsiyalash qurilmasi yordamida ipga beriladigan buramlarni hisoblash dasturi” ishlab chiqilib O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agintligidan elektron hisoblash mashinalari uchun DGU guvohnomasi olindi.

Nazariy tadqiqotlar asosida yangi konstruksiyadagi ipga soxta buram beruvchi modifikatsiyalash qurilmasi ishlab chiqildi. 6-rasmda taklif etilgan modifikatsiyalash qurilmasining takomillashtirilgan konstruksiyasi keltirilgan.



**6-rasm. Yangi konstruksiyadagi modifikatsiyalash qurilmasi**

6-rasmda a-modifikatsiyalash qurilmasining umumiy ko‘rinishi, b-qurilmaga qirqim berilgan ko‘rinishi, d-qurilmaning tepadan ko‘rinishi, 1-qurilma korpusi, 2-shtopurniy kolso, 3-podshipnik, 4-maxsus shkif, 5-tasma, 6-ipga buram beruvchi qurilma, 7-giperbola shakldagi spiralsimon bo‘rtmalar.

Modifikatsiyalash qurilmasi ichki yuzasi giperbola shaklda bo‘lib, spiralsimon bo‘rtmalardan iborat. U yordamida pishitish uchburchagidan o‘tayotgan tolalarning migratsiyasi ikki marta sodir bo‘lish natijasida tolalar joylashish zichligi ortishiga erishiladi. Bu esa unga ipning buramlar sonini, tukdorligini kamaytirishga va uning pishiqligini oshishiga hamda muvozanatlangan ip olishga sabab bo‘ladi.

To‘liq ichki yuzasi giperbola shaklda bo‘lgan spiralsimon bo‘rtmali modifikatsiyalash qurilmasi halqali yigirish mashinasi urchuqqa nisbatan parallel va cho‘zish asbobining chiqaruvchi juftligi va ip o‘tgich oralig‘ida o‘rnatilib ip yigiriladi. Cho‘zish asbobining chiqaruvchi juftligidan tutamcha shaklidagi tolalar guruhi shakllanayotgan ip chiqadi va u modifikatsiyalash qurilmasi yordamida dastlabki soxta buramni oladi, modifikatsiyalash qurilmasi tasmali uzatma bilan harakatlantirish joyi orqali  $6000-8000 \text{ min}^{-1}$  gacha aylantiriladi. Qurilmaning birinchi yarmida ip “S” buram, ikkinchi yarmida esa “Z” buram oladi. Undan shakllanib chiqayotgan ip, ip o‘tgichga yo‘naltiriladi.

Modifikatsiyalash qurilmasining ta‘sirida pishitish uchburchadagi tola taranglik o‘zgarishi ular migratsiyasini kuchaytiradi. Qurilma yordamida belgilangan buramning pishitish uchburchagiga yetib kelishi tolalarni ip markaziga yaqinlashtiradi, ipning holatini o‘zgartirib ip pishiqligi va tengvaznlilik xossasini yaxshilaydi.

Ipga soxta buram beruvchi modifikatsiyalash qurilmasi uchun O‘zbekiston Respublikasining ixtroga 1 ta patenti olindi.

Dissertatsiyaning “**Modifikatsiyangan ip ishlab chiqarishga ta‘sir etuvchi omillar tadqiqoti**” deb nomlangan uchinchi bobida nazariy tadqiqotlarda aniqlangan modifikatsiyalash qurilmasining parametrlari asosida amaliy tajribalarni o‘tkazilgan bo‘lib, unda tajriba o‘tkazish metodikasi ishlab chiqilib, xomashyo tanlandi, 20 teks ip yigirish rejasi asosida kam buramli tajriba iplari olindi. Bu yerda modifikatsiyalash qurilmasi ishchi parametrlarining yigirilgan ip xossasiga ta‘sirini baholash maqsadida to‘la olilli tajribalar tahlili amalga oshirildi, bunda qurilmaning tezligi va uning mashinada joylashishi hisobga olindi. Sinov natijalarining qayta ishlanishi matematik statistika usullari asosida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib amalga oshirildi.

### 1-jadval

#### Kiruvchi omillar qiymatlari va ularning o‘zgarish oraliqlari

T/r	Omillar nomi	Kodlash-tirilgan belgisi	O‘lchov birligi	Omillarning haqiqiy qiymatlari			O‘zgarish oralig‘i
				-1	0	1	
1	Qurilmaning aylanish chastotasi	$X_1$	$\text{min}^{-1}$	6000	7000	8000	1000
2	Qurilmaning mashinada joylashish o‘rni	$X_2$	mm	30	45	60	15

Chiquvchi omillar sifatida  $Y_1$ -ipning solishtirma uzilish kuchi va  $Y_2$ -ipning tukdorligi olindi.

## Tajriba rejasi va natijalari


T/r	Omillar sathlari		Ipnig solishtirma uzish kuchi		Ipnig tukdorligi	
			O'rtacha $\bar{Y}_{u1}$	$S^2\{y_u\}$	O'rtacha $\bar{Y}_{u2}$	$S^2\{y_u\}$
U	$X_1$	$X_2$				
1	+	+	16,41	0,0113	5,16	0,024
2	-	+	15,99	0,0265	5,54	0,031
3	+	-	15,43	0,0220	5,85	0,029
4	-	-	16,77	0,0265	6,27	0,039
5	+	0	16,88	0,0338	6,77	0,045
6	-	0	14,59	0,0220	7,31	0,054
7	0	+	14,84	0,0220	7,81	0,065
8	0	-	16,13	0,0450	8,33	0,014
9	0	0	14,98	0,0313	8,82	0,016

Tajribalar dastlab tasodifiy sonlar jadvallaridan foydalanib, randomizatsiya qilindi va ular bo'yicha ikki takrorlikda o'tkazildi. Tajriba natijalariga ishlov berish qoidasiga binoan dastlab tajriba takroriyliigi aniqlandi. Buning uchun Koxren mezonining hisobiy kattaligi topilib, jadvaliy qiymati bilan qiyoslandi. Shuningdek, tajriba natijalarini standart usullarda qayta ishlab, chiquvchi parametrlar tajriba ipning solishtirma uzish kuchi va tukdorlik ko'rsatkichlarining regression tenglamalari olingan.

$$1. y_1 = 15,76 + 0,2282x_1 - 0,182x_2 + 0,44x_1x_2 + 0,28x_1^2 + 0,16x_2^2$$

$$2. y_2 = 6,86 - 0,2232x_1 - 0,3232x_2 - 0,703x_1^2 - 0,3589x_2^2$$

Tenglamalarning yechimlari kompyuter Mathcad dasturida hisoblanib, ularning izochiziqlari tahlil qilindi (7-8-rasm).



7-rasmda ipning solishtirma uzish kuchi izochiziqlari keltirilgan. Bu izochiziqlar modifikatsiyalangan ipning chiziqiy zichligi 20 teks bo'lganda ipning solishtirma uzish kuchi yuqori bo'lishi uchun  $X_1$ -qurilma aylanish chastotasi  $8000 \text{ min}^{-1}$  va  $X_2$ -qurilmaning mashinada joylashish o'rni 60 mm bo'lganda ipning uzish kuchi 16 sN/teksligi aniqlandi.

8-rasmda ipning tukdorligini aniqlash izochiziqlari keltirilgan. Birinchi omilning natural qiymati  $8000 \text{ min}^{-1}$ , ikkinchi omil 60 mm qiymatda chiquvchi parametr bo'lgan ipning tukdorligi 5,2 ga tengligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**Ishlab chiqarish sharoitida modifikatsiyalangan ip yigirish texnologiyasining tajriba natijalari**” deb nomlangan to'rtinchi bobida to'qimachilik korxonalarida orasida yuqori samarada ishlayotgan “Agro Teks Alliance” MCHJ korxonasida taklif etilayotgan qurilma ishlab chiqarish sharoitida kompleks sinovdan o'tkazildi. Modifikatsiyalash qurilmasini halqali yigirish mashinasiga o'rnatib, ishlab chiqarish tajribalari o'tkazildi. Dastlab modifikatsiyalash qurilmasining optimal ishlash parametrlari halqali yigirish mashinasi urchug'i aylanish chastotasiga bog'liqligi amaliy tajribalarda o'rganildi. Modifikatsiyalash qurilmasi aylanish chastotasining halqali yigirish mashinasidagi urchuq aylanish chastotasiga nisbati va uning ip sifatiga ta'siri ko'rib chiqildi.

### 3-jadval

#### **Qurilma va mashina urchuq aylanish chastotalari nisbati**

T/r	Aylanish chastotasi	O'lchov birligi	1-nisbat	2-nisbat	3-nisbat
1	Qurilmaning aylanish chastotasi	$\text{min}^{-1}$	8000	8000	8000
2	Urchuqning aylanish chastotasi	$\text{min}^{-1}$	13500	14500	15500
	Nisbat		0,6	0,56	0,52


Tajribalar korxonada sharoitida halqali yigirish mashinasi urchug'ining aylanish chastotasi  $13500 \text{ min}^{-1}$  dan  $15500 \text{ min}^{-1}$  gacha oraliqda va modifikatsiyalash qurilmasi aylanish chastotasi yuqoridagi nazariy va amaliy tadqiqotlarda ko'rsatilganidek  $8000 \text{ min}^{-1}$  deb qabul qilindi. Olingan natijalar nisbatlar farqi modifikatsiyalangan iplarning fizik xossalariga ta'sir qilishini ko'rsatdi.

### 4-jadval

#### **Turli tezlik nisbatida yigirilgan iplarning sifat ko'rsatkichlari**

Nisbatlar	Pishitilganlik (b/m)	Uzilishdagi uzayish (%)	Uzish kuchi (sN/teks)	Tukdorlik
0,6	747	4,3	14,4	5,54
0,56	765	5,3	15	5,05
0,52	825	5,2	15,1	5,5


EleTwist Electronic Yarn Twist Tester qurilmasida turli nisbatda yigirilgan iplarning buramlari soni aniqlandi (9-rasm).



**9-rasm. Turli nisbatda yigirilgan ipning pishitilganligi.**

9-rasmda 0,52 nisbatda yigirilgan ipning pishitilganligi qolgan ikkala nisbatda yigirilgan iplar pishitilganligidan ko‘p. Nisbat kamayib borgan sari pishitilganligi ko‘payib borgan. “Uster Statistics 2023” ko‘rsatkichlariga asosan 0,6 nisbatda yigirilgan ipning pishitilganligi 25 sifat sinfiga qolgan nisbatlarida yigirilgan iplarning pishitilganligi 50 sifat sinfiga kiradi.

Tabletop lea strength tester qurilmasida turli nisbatda yigirilgan iplarning uzilishdagi uzayishi va solishtirma uzilish kuchi aniqlandi (10-rasm).



**10-rasm. Turli nisbatlarda yigirilgan ipning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari.**

10-rasmdan 0,56 nisbatida yigirilgan ipning uzilishdagi uzayish ko‘rsatkichi eng yuqori ekanligini, 0,52 nisbatdan 2 % ga va 0,6 nisbatidan 18 % ga yaxshiligini ko‘rish mumkin. “Uster Statistics 2023” ko‘rsatkichlariga asosan barcha nisbatda yigirilgan ipning uzilishdagi uzayishi va uning variatsiya koeffitsiyenti 50 sifat sinfiga kiradi. Ammo 0,56 nisbatda yigirilgan ipning sifat ko‘rsatkichi qolgan iplarnikidan yaxshiroq.

10-rasmdan 0,56 va 0,52 nisbati yigirilgan ipning uzilish kuchi deyarli bir-biriga yaqinligi va 0,6 nisbatiga qaraganda 4 foizga yaxshiligini ko‘rishimiz mumkin. “Uster Statistics 2023” ko‘rsatkichlariga asosan barcha nisbatlarda yigirilgan ipning

